

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

FRANS KAFKANING IJODI VA HIKOYALARINING TAHLILI

Obloqulova Marjona

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-kurs talabasi

Hammallif: O'sarova Laylo

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr jahon adabiyotining yirik vakillaridan biri Frans Kafkaning hayot va ijod yo'li hamda uning hikoyalari, yo'nalish uslubi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: “metamorfoz”, ijtimoiy izolyatsiya, yolg'izlik, qo'rquv, Josef K, yarim tur.

XX asr adabiyoti taraqqiyotini yangi yo'nalishga solib yuborgan, inson va uning umriga o'zgacha munosabatni qaror toptirgan Frans Kafka dunyodagi eng g'aroyib va tushunarsiz taqdir egasi bo'lgan ijodkor desak mubolag'a bo'lmaydi. “Menda adabiy qiziqishlar yo'q, men o'zim adabiyotda borman”, m – degan edi u do'stlaridan biriga.

Kafka asarlarini tahlil qilishda uning qalamiga xos bo'lgan uslubi, ma'no murakkabliklari, mistik atmosferasi alohida e'tiborga olinishi lozim. Kafka hikoyalari ko'pincha absurd, yolg'izlik kabi sahnalardan tarkib topgan. U hikoyalarida o'zida, oilasida kechayotgan muammolarni emas nafaqat o'z zamonasining ham qayg'u alamlari, holatlarini qog'ozga ko'chirgan.

F.Kafkaning “Tush” va “Mutaham” hikoyalari uning uslubiy yo'nalishlari, adabiy mahoratini o'rganishda juda ham yorqin namuna ko'rsatib beradi. U ushbu hikoyalari orqali insonning yovuzliklari, tubanliklari, jamiyat va insonlar o'rtasidagi nomuvofiqliklar, insondagi ruhiy iztiroblari aks etadi.

“Tush” – bu yozuvchining hikoyalaridan biri bo'lib, uning qalamiga xos bo'lgan obsurdlik, noaniqlik va inson o'zining yo'qotishi o'ziga xos uslubda yozilgan, Ushbu hikoyada Josef K, ya'ni bosh qahramonning hayoti, o'zining o'zligini topishga harakat qiladi, ammo hayotini avvalgidek davom etaveradi. U o'zining qandaydir sud jarayonida so'roq qilinayotganini, lekin kim tomonidan, nega, nima sababdan sud qilinayorganini bilmaydi.

Hikoya jamiyatning murakkab va muammoli tizimlariga qarshi kurashayotgan insonning zaifligini aks ettiradi. Josef Kning ayylanishi, uning biror-bir sababga asoslanmaganligi insonning o'zligini tushunishga bo'lgan intilishning foydasizligini, ijtimoiy tizimlar inson erkinligini cheklashini tasvirlaydi.

“Mutaham” hikoyasida Kafka insonning o'ziga xoslik va san'atga bo'lgan intilishdagi to'siqlarni yoritib beradi. Hunger artist (ochlik san'atchisi) o'zining badiiy san'ati orqali uning o'zligini ochib beradi, lekin ijtimoiy tuzum uning san'atini tushunmaydi va e'tibordan chetga goldiradi. Bosh qahramonning ochlikni namoyon qilishdan maqsadi uning insoniy va san'atiy

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

bo'shlig'ini ko'rsatadi , lekin unga bo'lgan ijtimoiy qiziqishning tugashi , tashlab ketilishi ijodiy mahorati har doim ham o'z ifodasini topmasligini ifodallaydi.

Kafka hikoyalarida insonning ichki dunyosi, ruhiy holati har doim birinchi o'rinda turadi. "Tush" va " Muttaham" hikoyalarida bu o'z ifodasini yaqqol aks ettirgan. Kafka ushbu hikoyalarida insonning yagona maqsadi – o'zligini anglab yetish, lekin bu intilish ko'pincha noaniq va nomuvofiq bo'lib qolishini ko'rsatadi. Ichki kurashlar va hayotdagi murakkabliklarni qalamga olishi, uning asarlarida o'quvchi o'z hayotining ma'nosini anglab yetishga ijtimoiy tuzumlar xavf solganda o'z o'rnini anglashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Vahobjon Kenjayev tarjimasi.1noyabr 2013.
- 2.Mirzaali Akbarov.20dekabr.2014
- 3.ziyouz.net
- 4.kh.davron.www